

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 221 (1282), 2024-yil 31-oktabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTONDA YANGI SIYOSIY DAVR: MUNOSIB XALQARO E‘TIROF

**SAYLOV
2024
27-OKTABR**

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIMI!

27-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatligiga saylovlarda, bir tomondan, ochiqlik va shaffoflikni kuzatgan bo‘lsak, ikkinchi tomondan, partiyalarning ilgari kuzatilmagan zamonaviy, ilg‘or, siyosiy texnologiyalardan keng foydalanгани alohida ta‘kidlash joiz. Buni mahalliy va xalqaro ekspertlar, mustaqil OAVlar hamda kuzatuvchilar alohida e‘tirof etdi.



Davomi 3-betda

Hamkorlik



Dunyo olimlari yillar davomida gapirib, bong urib kelayotgan masala — sayyoramizda suv zaxirasi kamayib borayotgani muammosi tobora jiddiy tus olmoqda. Tahlillarga ko‘ra, 1960-yillardan buyon suvga talab ikki barobar ko‘paygan. Bu aholi sonining ortishi, qishloq xo‘jaligi va sanoat rivojlanishi kabi ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Insoniyat suv zaxiralarini tejash, asrab qolish bo‘yicha samarali yechimlar izlayapti, barcha davlatlar birgalikda harakat qilishga intilmoqda.

BARQAROR SUV HARAKATI

Markaziy Osiyo yoshlarini Toshkent shahrida jamladi

O‘zbekiston ham mazkur masalaga befarq emas. So‘nggi yillarda mamlakatimiz jahon maydonida aniq takliflar bilan faollik ko‘rsatayotir. Bu sa‘y-harakatlar dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilibgina qolmay, O‘zbekistonga Markaziy Osiyo davlatlari orasida ekologik muammolarga

qarshi kurashda dadil qadam tashlayotgan mamlakatlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois, Yevropa Ittifoqi navbatdagi yirik tadbiri o‘tkazish uchun aynan Toshkent shahrini tanladi.

Davomi 2-betda

Taraqqiyot odimlari



ISHLOV BERILAYOTGAN OLMOS

YURTIMIZ TURIZM IMKONIYATINI SHUNDAY BAHOLASH MUMKIN

Turizm ortiqcha xomashyo talab qilmaydigan serdoramad tarmoq ekanini bilan dunyo davlatlari e‘tibor markazida turibdi. Neft-gaz mahsulotlariga boy arab mamlakatlarining zo‘r berib, katta mablag‘ hisobiga sayyohlarni jalb qilishga urinishi ham shundan. Statistika ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yili eng ko‘p sayyoh borgan o‘lka — Fransiya. U yerga 89 milliondan ortiq turist tashrif buyurgan. Keyingi o‘rinlarni esa 84 millionga yaqin sayyoh borgan Ispaniya, 79 milliondan ortiq turist qadami tekkan AQSH egallab turibdi. E‘tiborli jihati, bu mamlakatlar boshqa sohalarda ham ilg‘or davlatlar sirasiga kiradi.

Davomi 6-betda

Ishsizlikdan xoli hudud

MAHALLALARDA XORIJDAGIDAN YAXSHI MAOSH TAKLIF ETILMOQDA

“Bo‘lsa hamki quruq yer, hosil berar to‘ksang ter”. Asrlar davomida tildan tilga o‘tib kelayotgan bu hikmat zamirida mehnatsevarlik, izlanish va intilish kabi fazilatlar mujassam ekanini ilg‘ab olish qiyin emas. Demak, har qanday zamon va jamiyatda mehnat qilish ulug‘langan.

Mamlakatimizdagi islohotlar avvalgilardan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Endi mehnat va izlanishga da‘vat etish bilan cheklanib qolmayotgani yo‘q. Mehnat qilish, farovon yashash uchun imkoniyat, zarur shart-sharoit, imtiyoz yaratib berilmoqda, tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Joylarda “Sayxunobod”, “Uychi”, “Zarbdor”, “G‘ijduvon” tajribasi asosida boshlangan xayriy ishlar qisqa muddatda samarasini ko‘rsatdi. Hayotbaxsh islohotlar tufayli nafaqat shahar va tuman markazlari, balki yaqin va chekka qishloqlar sanoatlashib, tadbirkorlik, tomorqachilik rivojlanib boryapti. Qo‘shqepa tumanidagi “Sarmozor” mahalla fuqarolar yig‘ini hunarmandlar yurti Marg‘ilon shahrining g‘arbiy hududiga tutashib ketgan ko‘hna maskanlardan. Aholining asosiy daromadi agrar tarmoqqa bevosita bog‘liq. Sanoat tarmoqlarida ishlash, hunar o‘rganish uchun qo‘shni shaharga borishga to‘g‘ri kelgan.

Aholi bandligini ta‘minlash, farovonligini oshirish, tadbirkorlik g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash borasida berilgan imtiyoz va imkoniyatlar qishloq hayot tarziga o‘ziga xos o‘zgarish va yangiliklar olib kirdi. Mahalla ishsizlik, kambag‘allikdan xoli hududlardan biriga aylandi. Bu bejiz emas, albatta.

Davomi 4-betda



SIFATLI KASBIY TA‘LIM TIZIMINI YARATISH ISTAGI



YANGI FARMON SOHADAGI ISHLARNI JADALLASHTIRADI

Kasbiy ta‘lim zamon talablariga javob bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun asos yaratarkan, iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Mehnat bozorida jadal o‘zgarishlar va iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish har bir mamlakat uchun eng muhim vazifalardan biriga aylannoqda.

O‘zbekistonda bu masala alohida ahamiyat kasb etib, zamon talablariga mos o‘zgarishlar kechmoqda. Joriy yil 16-oktabrda Prezidentimizning “Kasbiy ta‘limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Bu

qadam davlatimizning ichki va jahon mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga qodir yuqori sifatlari va raqobatbardosh kasbiy ta‘lim tizimini yaratish istagini aks ettiradi.

Davomi 5-betda

BANDLIKNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

MUNOSIB MEHNAT MUNOSABATLARINI KENG JORIY QILISH UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATADI

Har qanday davlatning xalqaro maydondagi nufuzi fuqarolarning ijtimoiy himoyasi bilan belgilanadi. Shu ma‘noda, bugun mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 11-sentabr kuni kambag‘allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifati bosqichiga olib chiqish masalalari muhokama qilingan videosektorda bundan buyon kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylinishi ta‘kidlangan edi.

Davomi 2-betda



Hamkorlik

BARQAROR SUV HARAKATI

Markaziy Osiyo yoshlarini Toshkent shahrida jamladi

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda ilk bor o'tkazilayotgan "Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo" suv resurslarini barqaror rivojlantirish bo'yicha xalqaro yoshlar konferensiyasi ko'tarinki ruhda davom etmoqda. 30-31-oktabr kunlari poytaxtimiz mezbonlik qilayotgan xalqaro tadbir "Markaziy Osiyo yosh liderlari: barqaror suv harakati paradigmasini o'zgartirish" mavzusiga bag'ishlandi.

Yevropa Ittifoqi tashabbusi va Nordik universiteti tashkilotchiligi, qator vazirlik va idoralari hamkorligida o'tayotgan nufuzli tadbirda xalqaro tashkilotlar vakillari, Markaziy Osiyo davlatlaridan 100 nafar yosh yetakchi ishtirok etyapti.

Anjuman mavzusi — suv tanqisligi, ushbu ne'matdan oqilona foydalanish va yangi texnologiyalarni qo'llash masalalari. Ammo bu gal ma'ruzachilarning asosiy qismi yosh olimlardan iborat bo'ldi.

Yevropa Ittifoqi ushbu dolzarb masalaga aynan yosh avlod e'tiborini ko'proq qarash bilan birga yoshlarda daxldorlik hissinin oshirish, tejamonlikni choralash va albatta, yangi ilmiy loyihalarni rag'batlantirishga intilmoqda. Ayniqsa, yoshlar qatlami ko'p bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarida bunday targ'ibot juda muhim. Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Terxi Xakala ta'kidlaganidek, bugun mintaqa mamlakatlari tobora o'zaro bog'liqlik va umumiy farovonlikka intilmoqda. Shuningdek, tadbirning ochilish marosimida so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Zulfiya Sulaymonova ishtirokchilar e'tiborini dolzarb muammolarga qaratdi. Xalqaro konferensiya fikr va tajriba almashishda o'ziga xos platformaga aylandi.

Terxi XAKALA, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili:



— Ushbu mintaqaviy tadbir Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi yaqin hamkorlikning yorqin namunasidir. Turli sohalardagi yosh yetakchilar — fuqarolik jamiyati, ilmiy doiralar, ommaviy axborot vositalari, hukumat vakillari hududlarni rivojlantirish, ekologik muammolarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik tobora faollashmoqda. Oliy darajadagi uchrashuvlar, bir qancha hududiy tadbirlar bo'lib o'tdi. O'tgan yili beshta asosiy yo'nalish borasida yanada hamjihat ishlar bo'yicha qo'shma "yo'l xaritasi" qabul qilindi. Bugungi anjumanida asosiy e'tibor suv resurslarini barqaror boshqarish va bu boradagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilmoqda. Seminarlarda ushbu mavzularga to'xtalypmiz.



Dilnoza KATTAXONOVA, Yoshlar ishlari agentligi raisi o'rinbosari:



— Bugun dunyo aholisining 16 foizini yoshlar tashkil qilsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich e'tirof etsa arzigulik, ya'ni aholining 60 foizdan ortig'i 30 yoshdan kichiklarni tashkil etadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda yoshlar mamlakati, desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda ular uchun misli ko'rilgan imkoniyatlar yaratib berilmoqda. 2016-yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Yurtimizda 30-iyun — "Yoshlar kuni" deb e'lon qilingan. Umuman, yoshlar siyosati bolaning bog'cha davridan boshlab, hayotda o'z o'rnini topguniga qadar ko'maklashadigan yaxlit tizimga aylandi.

Bugun aholisining deyarli yarmidan ko'pi yoshlar bo'lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar bilan ishlash, ayniqsa, ularning ekologik madaniyatini yuksaltirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari so'nggi yillarda yoshlar masalasi bo'yicha 30 ga yaqin milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslarni ilgari surgan. Shulardan biri sifatida 2022-yil 21-iyul kuni Qirg'iz Respublikasining Cho'lponota shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to'rtinchi maslahat uchrashuvida Prezidentimiz tomonidan Yoshlarga doir siyosatning umumiy yo'nalishlari to'g'risida ko'p tomonlama bitim tayoirlash tashabbusi bildirilgan edi. Mazkur bitim loyihasi Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan ijobiy qabul

qilindi, 2023-yil 14-sentabr kuni Tojikistonning Dushanbe shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi maslahat uchrashuvida tasdiqlandi. Unda aynan yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan edi va bugun shu hujjatning ijobiy natijasini ko'rib turganimizdan xursandmiz.

Mintaqaviy yoshlar bilan hamkorlikda shu kabi loyihalarni muntazam amalga oshirib, ularni qo'llab-quvvatlash uchun yetarli sharoit va imkoniyatlar yaratib berilishiga ishonamiz. Konferensiya sessiyalarida Markaziy Osiyo yoshlari tomonidan mintaqamizdagi ekologik vaziyatni yaxshilash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va boshqa muammolarni yechimiga qaratilgan takliflarni Yoshlar ishlari agentligi qabul qilib, hukumatga kiritish va bu borada yaqin hamkorlik o'rnatishga tayyor.

Sherzod MUSTAFOQULOV, Xalqaro Nordik universiteti rektori:



— Ushbu xalqaro tadbiri o'tkazish va buning uchun Toshkent shahrini tanlash tashabbusi Yevropa Ittifoqi tomonidan bildirildi. Bunda O'zbekistonning Markaziy Osiyo miqyosidagi faolligi ortib borayotgani, mamlakatimizda aholi va yoshlar soni ko'p ekani inobatga olingan. Ayni kunlarda esa mintaqa davlatlarining 35 yoshgacha bo'lgan vakillari poytaxtimizda jam bo'lib turibdi. Yirik formatdagi konferensiya doirasida universitetimizda "workshop" hamda "nexus" o'yinlari tashkil etilmoqda. Shuningdek, dasturdan muhim fotograf, ko'plab fotoko'rgazmalar muallifi Tamara Kubayeva rejissyorligidagi film namoyishi ham o'rin olgan.

Umuman, konferensiyada yoshlarning e'tibori suv muammolariga qaratilib, ular uchun xorijlik ekspertlar tomonidan ma'ruzalar, seminarlar o'tkazilmoqda. Ta'kidlanayotganidek, bugun Markaziy Osiyoda suv resurslari kamayib borish xavfi ortmoqda. Vaziyat shu tarzda davom etsa hamda suv resurslaridan oqilona foydalanmasak,

2050-yilga borib, jiddiy suv tanqisligi yuzaga kelishi, bu mintaqadagi yalpi ichki mahsulotning 11 foiz qisqarishiga olib kelishi mumkin. Qolaversa, xalqaro tashkilotlar hisobotlari Markaziy Osiyoda muzliklarning har yili 1 foiz erishi kuzatilayotganini ko'rsatyapti. Bu juda katta muammolarni yuzaga keltiradi.

Mana shu muammolarning oldini olishda yoshlar faollik ko'rsatishi, kelgusida ilg'or tashabbuslarni ilgari surishi muhim. Xalqaro konferensiyada jam bo'lgan 100 nafar yetakchini shu maqsad birlashtiradi. Tadbir doirasida suv muammolari yechimiga bag'ishlangan "Toshkent deklaratsiyasi" yoki "Toshkent rezolyutsiyasi" qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Marta Saragosa NAVARRO, Jahon yoshlar parlamentining global suv targ'iboti bo'yicha rahbari:



— Konferensiya ilhomlantiruvchi ruhda bo'lib o'tmoqda. Bu yerda yoshlarni ertaga biz ko'rishni istagan dunyoni shakllantirishga jalb qilish imkoniyatlari, shuningdek, hozirgi hamkorlik tashabbuslarini muhokama qilyapmiz. Ayni paytda ko'p mintaqalardagi suv inqirozi kuzatilmoqda. Bu borada olimlar va siyosatchilarning birgalikdagi sa'y-harakati yoshlarni ham tashabbuskorlikka undaydi.

Tadbirda men ham nutq so'zladim. Ma'ruzamda o'zbek yoshlarining

mamlakat bo'yab yechimlarni tatbiq etish, suvdan va mahalliy sanitariya inshootlaridan foydalanish imkoniyatlari hamda jarayondagi ishtiroki haqida so'z boradi. Mintaqadagi suv muammolarini hal etishda yoshlar harakatining faolligi juda muhim. Umid qilamanki, kelajakda bu yo'nalishda ishlaydigan yosh kadr va mutaxassislar soni yanada ortadi. Buning uchun yangi loyihalarni moliyalashtirishga e'tibor qaratishimiz zarur.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

BANDLIKNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

MUNOSIB MEHNAT MUNOSABATLARINI KENG JORIY QILISH UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATADI

Ijtimoiy himoya

2025-yil 1-martdan boshlab amaliy kasbiy ko'nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish imkonini beruvchi yangi tajriba, 1-maydan boshlab esa xalqaro tan olingan ta'lim dasturlari joriy etiladi. 2026-yil 1-yanvargacha kasbiy ko'nikmalar markazlarini xalqaro baholash tashkilotlari akkreditatsiyasidan o'tkazish orqali bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikat berish yo'lga qo'yiladi.

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning joriy yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan bu borada yangicha yondashuvlar belgilab berildi.

— Mazkur qaror kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi, — deydi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinbosari Ra'no Turdiboyeva. — Kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi qabul qilindi hamda uning ijrosi vazirligimizga yuklatildi. Dastur ijrosini ta'minlash uchun yangi tizimni joriy etish nazarda tutgan holda vazirligimiz faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Xususan, mehnat bozori, band va ishsiz aholini tarkibiy tahlil qilish, ishsizlarni manzilli aniqlash, aholi bandligini ta'minlash

dasturlarini shakllantirish, bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish, ishsizlarni ishga joylashtirish shular jumlasidan. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish, hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, malakani baholash, munosib mehnat sharoitlari yaratish, mehnat me'yorlariga rioya etilishini o'rganish, mehnat huquqini ta'minlash hamda mehnatni muhofaza qilish masalalari ham vazirlik zimmasidagi asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Qaror bilan Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tugatildi. Uning shtat birliklari, vazifa va funksiyalari, mulki Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufiga o'tkazildi.

Vazirlik hududiy bo'linmalarining kambag'allikni qisqartirish va kasb-hunarga o'qitish yo'nalishlari bo'yicha faoliyati loyihaviy yondashuv tamoyili asosida tashkil etiladi.



2025-yil 1-dekabr qadar 50 ta tumanda, 2026-yilda qolgan tumanlarda 50-100 gektardan ijara asosida ajratilgan qishloq xo'jaligi yer maydonida sanoatlashgan plantatsiya, bog' va uzumzorlar tashkil etiladi.

— Misol uchun, uch oy muddatda ijobiy natija bergan "100 ta eng samarali mikroloyiha" katalogi yaratish topshirig'i berildi, — deydi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi boshqarma boshlig'i Zokir Imomov. — Bu katalogni shakllantirishdan asosiy maqsad mahallalarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan, lekin yetarli malakaga ega bo'lmagan fuqarolarni o'qitish va ularga zarur yordam ko'rsatishdan iborat. Albatta, bu vazifani hokim yordamchilari ko'magi bilan barcha hududlarda ommalashtirish chorasi ko'riladi.

2025-yil 1-dekabr qadar ijara asosida yer maydoni ajratilgan tumanlarda kamida 40 gektar maydonda "bir kontur — bir mahsulot" tamoyili bilan yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha namunaviy loyihalar amalga oshirildi.

2026-yil 1-avgust qadar har bir viloyatda kamida ikkita ko'p qavatli kompleks sanoat markazlarini barpo etish va tadbirkorlarni joylashtirish loyihalari bajariladi. Sanoat kirib bormagan mahallalarda 2025-yil 1-dekabr qadar 1000 ta, 2026-yilda 2000 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda kichik ishlab chiqarish loyihasi ishga tushiriladi. Har yili o'zini o'zi band qilgan 50 ming fuqaroni bosqichma-bosqich kichik biznes subyektlariga aylantirish chorasi ko'riladi.



Ishsiz va kambag'al aholini ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos ishchi kasblarga o'qitish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlari negizida kasbiy ko'nikmalar markazlari tashkil etiladi.

— Shu paytgacha kasbga o'qitish va "Ishga marhamat" monomarkazlari qator kasblar bo'yicha mutaxassis tayyorlagan bo'lsa, endi xorijiy va mahalliy ishlab chiqaruvchilar talabidan kelib chiqib, kasbga tayyorlashni yo'lga qo'yadi, — deydi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi boshqarma boshlig'i Jasur G'ayratov. — Xususan, kasbiy ko'nikmalar markazlarida 2025-yil 1-yanvardan ish beruvchilar talabiga moslashuvchan o'qitish muddati va vaqtini

nazarda tutuvchi tezkor kurslar ochiladi. 2025-yil 1-martdan boshlab amaliy kasbiy ko'nikmalarni bevosita ish joyida shakllantirish imkonini beruvchi yangi tajriba, 1-maydan boshlab esa xalqaro tan olingan ta'lim dasturlari joriy etiladi. 2026-yil 1-yanvargacha kasbiy ko'nikmalar markazlarini xalqaro baholash tashkilotlari akkreditatsiyasidan o'tkazish orqali bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikat berish yo'lga qo'yiladi.

2026-yil 1-iyul qadar malakali xorijiy tashkilotni jalb qilgan holda xalqaro standartlar bo'yicha kasbiy malakani baholovchi markaz tashkil qilinadi. Ushbu markazda xorijiy davlatlarda tan olinadigan malaka sertifikatlari beriladi.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-yanvardan Toshkent shahri va Samarqand viloyatida, 2025-yil 1-sentabrdan mamlakatimizning boshqa hududlarida ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni buyurtma asosida davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari hamda ish beruvchilarni jalb qilgan holda o'qitish yo'lga qo'yiladi.

Qarordan sohaga doir juda ko'p o'zgarish va yangiliklar o'rin olgan. Xususan, Mehnat bozori tadqiqotlari instituti Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti sifatida qayta tashkil etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzurida davlat muassasalari shaklida tashkil etilgan Yash o'rinlari yaratishni rag'batlantirish hududiy jam'armalari yuridik shaxs maqomi tugatilgan holda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga o'tkaziladi.

2025-yil 1-martdan boshlab mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha tashkilotda mehnat huquqlari va mehnat muhofazasi ta'minlanganlik holati onlayn reyting asosida baholalanadi.

Mazkur qaror inson resurslarini rivojlantirish, mehnat bozori isloh qilish, bandlikning zamonaviy shakllarini tatbiq etish orqali kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro andazalar asosida munosib mehnat munosabatlari keng joriy etish uchun yangi sharoitlar yaratadi.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ZBEKISTONDA YANGI SIYOSIY DAVR:

MUNOSIB XALQARO E'TIROF

Munosabat

Bobur BEKMURODOV,
"Yuksalish" harakati raisiSAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM

"O'zbekiston tarixida siyosiy rivojlanish borasida yangi davrni boshlab berdi, desak to'g'ri bo'ladi. Yangi O'zbekiston demokratik rivojlanish yo'lida ortga qaytmas siyosat olib borayotganini tasdiqladi. Bu e'tirof mahalliy jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat tomonidan bildirilayotgani biz uchun muhim hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning kelgusidagi qiyofasi ham aynan ushbu o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi.



Boshlanishi 1-betda

Jadal kechayotgan siyosiy islohotlar

Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, O'zbekiston juda qisqa vaqt ichida jiddiy siyosiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshira oldi. Kuzatuvchilarning fikriga ko'ra, 2-3 yil ichida Konstitutsiyani yangi tahrirda qabul qilish va bir yilda parlament saylovida aralash saylov tizimini joriy etish oson vazifa emas. Ko'plab davlatlar bu kabi siyosiy islohotlarni uzoq yillar davomida amalga oshirgan.

Kuchli parlamentarizm va joylarda

vakillik organlarining vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgani hokimiyatlar bo'linishi va o'zaro tiyib turish prinsipi amaliyotda ishlashida muhim omil bo'ldi. Xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 14 tadan 18 taga ko'paytirildi. Parlamentning ijro etuvchi, sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirilmoqda.

Yana bir jihat, hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik qilishi bekor qilingani bo'ldi. Avval hokimlarga tegishli bo'lgan 30 dan ortiq vakolatlar mahalliy Kengashlarga o'tkazildi. Bu orqali nomarkazlashtirish siyosatining yangi bosqichga chiqqanligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ekspertlar fikriga ko'ra, ayniqsa, mahalliy Kengashlarning ijro organlari va byudjet ustidan nazorati yanada kuchayishi kutilmoqda.



Saylovlarda raqamli transformatsiya

Saylov jarayonlarining mutlaqo yangi va o'ziga xos tarzda o'tishida raqamlashtirishning ahamiyati yuqori bo'ldi. Ayniqsa, boshqa davlatlarda analogi bo'lmagan "E-Saylov" axborot tizimining ishga tushirilgani saylovlarning ochiq va shaffof o'tishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, mazkur elektron axborot tizimiga barcha, 30 mingga yaqin deputatlikka nomzodlar haqida ma'lumotlar

joylashtirildi. E'tiborlisi, Qonunchilik palatasining barcha — deputatlikka nomzodlarining tarjimai holi va dasturlari bilan dunyoning istalgan burchagidan tanishish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston saylov jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'lida yana bir katta qadam tashladi. Toshkentda raqamli ovoz berish tizimi sinovdan o'tkazildi,

bu esa fuqarolarga an'anaviy va elektron byulletenlar o'rtasida tanlov imkoniyatini berdi.

Raqamlashtirilgan ovoz berish jarayoni ovozlarini sanashda vaqtni tejashga yordam beradi va jarayonning inson omiliga bog'liqligini kamaytirishi bilan ahamiyatli. Sinov tariqasida boshlangan ushbu amaliyot kelgusi saylovlarda qimmatli tajriba bo'lishi aniq.

"Men dunyo bo'ylab ko'plab davlatlardagi saylovlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etganman. So'nggi 2-3 yilda mamlakatda ko'plab demokratik o'zgarishlar ro'y berdi. Bu safargi saylov ham butunlay yangi formatda o'tkazilganiga guvoh bo'ldim. Bu men uchun yangilik.

Yohansson Peter LYULLE,
xorijlik jurnalist (Shvetsiya)

O'zbekiston kun sayin taraqqiy etib borayotganidan xursandman. Nomzodlar orasida yoshlarning ko'pligi e'tiborini tortdi. Eng yosh nomzod 21 yoshda ekan. Bu saylovlarga yoshlarning qiziqishi naqadar yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi".

Bu mening O'zbekistonga to'rtinchi tashrifim. O'zbekistonda ham jamiyatda, ham davlat muassasalarida katta ijobiy o'zgarishlar bo'lganini sezdim. Parlamentning yangilinishi yangi o'zgarishlar, yangi islohotlar uchun xizmat qiladi, degan umiddaman. Yangi kuch parlamentdagi yangi deputatlar orqali mamlakat salohiyatini oshirishga, islohotlar jarayonida O'zbekiston Prezidentiga yordam berish va butun Markaziy Osiyo mintaqasining salohiyatini oshirishga hissa qo'shadi deb o'ylayman.

Tiberio GRATSIANI,
kuzatuvchi (Italiya)

Ko'plab uchrashuvlarda yangi texnologiyalarga, ayniqsa, sun'iy intellektga qiziqishni ko'rdim. Bu esa davlat va jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini yanada rivojlantirishda muhim resurs bo'lishi tabiiy.

Gender tengligi va inklyuzivlik

Gender kvotasining oshirilishi bo'yicha islohotlar olg'a siljishda katta qadam bo'lib, siyosatda va rahbarlik lavozimlarida ayollarning ishtirokini sezilarli darajada oshirdi. 2024-yilgi saylovlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzodlarning 44,7 foizini ayollar tashkil etdi, bu esa ayollarning mamlakat siyosiy hayotidagi mavqeiini mustahkamlab, tenglik prinsiplarini qo'llab-quvvatlaydi. Ayollar saylov komissiyalarida muhim lavozimlarni egallab, davlatning gender tengligiga sodiqligini tasdiqlamoqda.

Ushbu jihat xalqaro kuzatuvchilar tomonidan ham alohida e'tirof etildi. Jumladan, DIHB bu borada saylov

qonunchiligi 2023-yilda qayta ko'rib chiqilishi bilan saylov tizimi, partiyalar ro'yxatini ro'yxatga olishning yangi qoidalari, saylovni boshqarish organlarini shakllantirish va tuzilmasini o'zgartirish qoidalari, shuningdek, gender kvotasini oshirishni o'z ichiga olgan sezilarli darajada o'zgariganiga urg'u qaratdi.

Shu bilan birga, inklyuzivlikka alohida ahamiyat berildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun saylovda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralar qabul qilindi. MSK jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borib, fuqarolarning alohida ehtiyojlarini

hisobga oldi. Ovoz berish jarayonida ko'zi ojiz saylovchilar uchun Brayl alifbosidan foydalanishga mo'ljallangan maxsus byulletenlar joriy etildi. Nogironlar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar bilan maslahatlar olib borildi.

Shuningdek, yangilangan Konstitutsiyada xalqaro standartlarga muvofiq va DIHBning uzoq yillik tavsiyasiga javoban, muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning ovoz berish huquqidagi umumiy cheklov olib tashlandi. Bularning bari davlatning barcha fuqarolar uchun teng huquqlar ta'minlanganini ko'rsatadi.

"Deputatlikka nomzodlar orasida ayollar sonining ortib borishi mamlakatimiz uchun juda katta natija. Men bir ayol sifatida O'zbekistonda saylov sohasida bunday o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlayman va saylovlarda g'alaba qozongan barcha ayollarga omad tilayman".

Elsabe DURING,
kuzatuvchi (Janubiy Afrika)

"Saylovlarda jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar ham faol ishtirok etdi. Bu har bir inson o'zining saylov huquqidan emin-erkin foydalaniganini dalolat beradi".

Andela BELA,
xorijlik jurnalist (Germaniya)

"O'zbekistondagi saylovga oid milliy qonunchilik xalqaro saylov normalariga juda o'xshash. Mamlakatda xalqaro normalarga alohida e'tibor berilayotganini dalolat beradi. Inson huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi me'yorlarga mos. Masalan, bizda saylovlarda mahbuslar ishtirok etishi taqiqlangan. O'zbekistonda esa jazoni ijro etayotgan mahbuslar ham saylovda ishtirok etmoqda. Bu mamlakatda inson huquqlari yuqori darajada ta'minlanayotganini ko'rsatadi".

Aleksandr ALEKSANDROVSKIY,
kuzatuvchi (Rossiya)

"Saylov jarayonlari ochiqlik tamoyillariga asosan olib borildi. Barcha jarayonlar raqamlashtirilgan, hatto onlayn ovoz berish ham tashkil etildi va bu saylovlarning samarali o'tishiga xizmat qildi".

Tazeyen AKXTAR,
xorijlik jurnalist (Pokiston)SAYLOV
2024
27-OKTABR

Saylovchilarning ishtiroki to'g'risida

MSK

Xorijda ovoz berganlar



40 ta xorijiy davlatdagi 57 ta saylov uchaskalari



Ortga qaytmas siyosat yo'li

Ommaviy axborot vositalari saylov jarayonida faol ishtirok etdi va fuqarolarga saylovlar haqida ma'lumot olish imkonini berdi. Partiyalar va ularning vakillari o'rtasida debatlar translyatsiyasining tashkil qilinishi saylov jarayonlarida mutlaqo yangi yondashuv va qarashlar shakllanishini namoyon qildi. Targ'ibot kampaniyasi davrida butun mamlakat bo'ylab 30 dan ortiq debat va 50 ga yaqin muhokama maydonchalar tashkil qilindi. Ularda ishtirokchilar turli masalalarni muhokama qildi.

Debatlar davomida ko'tarilgan masalalar mamlakatda so'z erkinligi va fikrlar xilma-xilligi ta'minlanishiga oid islohotlar uchun teng huquqlar ta'minlanganini ko'rsatadi.

Fikr almashish va muhokamalarning ochiq bo'lishi hamda barchaga teng imkoniyat yaratilgani boshqaruvga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, albatta. Bu jihat ham xalqaro kuzatuvchilar, DIHB missiyasi tomonidan e'tirof etildi. Ular nomzodlar saylovoldi kampaniyasini teng sharoitlarda olib borishda erkin bo'ldi, degan xulosaga keldi.

Davlat va xususiy ommaviy axborot vositalari fuqarolarning saylovda ishtirok etish qoidalari va huquqlari haqida ma'lumot berish uchun axborot kampaniyalari tashkil qilindi. Bu barcha aholi qatlamlari uchun saylov jarayonini ochiq va oson, tushunarli

qilib, fuqarolarning ongli qaror qabul qilishiga yordam berdi.

DIHB xulosasiga ko'ra, saylovlarga tayyorgarlik barcha darajalarda samarali va belgilangan muddatlarga rioya qilib amalga oshirildi. Ekspertlar Markaziy saylov komissiyasi o'z majlislarini muntazam ravishda jonli efrida olib borgani va qarorlarini tezkorlik bilan e'lon qilish orqali shaffoflikka ko'maklashganini qayd etdi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillarini saylovlarni yoritish uchun akkreditatsiyadan o'tkazish jarayoni ham onlayn tartibda amalga oshirilgani saylovlarning yuqori darajada ochiq ekanligini ko'rsatadi.

"Barcha saylov jarayonlari juda yaxshi tashkil qilindi. Saylov uchastkasiga kirib kelayotgan saylovchilarga nomzodlar, partiyalar va saylov jarayonlari haqida batafsil ma'lumot berilgan".

David ROS
(Fransiya)

"Markaziy saylov komissiyasi hisobotini tingladik. Menda jarayon bo'yicha hech qanday e'tirozlar yo'q. Mutaxassis sifatida mamnunman. O'zbekiston o'z kelajagini tanlamog'ida va bunga ishonch bilan ovoz berdi".

Tatyana XEKKER,
xorijlik jurnalist (Germaniya)

Bir so'z bilan aytganda, bu yilgi saylovlarda O'zbekiston tarixida siyosiy rivojlanish borasida yangi davrni boshlab berdi, desak to'g'ri bo'ladi. Yangi O'zbekiston

demokratik rivojlanish yo'lida ortga qaytmas siyosat olib borayotganini tasdiqladi. Bu e'tirof mahalliy jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat tomonidan bildirilayotgani

biz uchun muhim hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning kelgusidagi qiyofasi ham aynan ushbu o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi.



Ishsizlikdan xoli hudud

Mahallalarda XORIJDAGIDAN YAKSHI MAOSH taklif etilmoqda

Boshlanishi 1-betda

Mahalla fuqarolar yig'ida ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida loyiha qiymati 191,7 milliard so'm bo'lgan 50 dan ortiq mikro va makro loyiha dasturi ishlab chiqildi. Joriy yilning shu kuniga qadar 37 ta turli korxonalar va yo'nalishni qamrab olgan yangi ishlab chiqarish tarmoqlari foydalanishga topshirilishi hisobiga nafaqat sarmozorliklar, balki yaqin atrofdagi mahallalar aholining bandligini ta'minlash imkonini vujudga keldi.

— Mahallamizdagi 1253 ta xonadonda 6570 kishi yashayapti, — deydi fuqarolar yig'ini raisi Jahongir Abrorov. — Yil boshida "mahalla yetiligi" bilan har bir oila hayot tarzi, muammolarini o'rganib, ishsizligi aniqlangan 352 fuqaro bilan alohida ishlashga harakat qildik. Ularning qiziqish va tashabbuslarini har jihatdan qo'llab-quvvatlash, qo'maklashishga e'tibor qaratdik. Ishlash istagi bor, lekin yetarli malakaga ega bo'lmagan yoshlar, xotin-qizlar "Ustozshogird" an'analari asosida kasb-hunarga jalb etildi. Bugun mahallamizda bekor yurgan odam, bo'sh qolgan tomorqa yo'q.

"Sharq Ravon" MCHJda "AZMARO" brendi ostida 100 xildan ortiq charam-poyabzal tayyorlab kelinadi. Bu yerda umumiy qiymati 60 milliard so'mlik ishlab chiqarish korxonasi ochilishi hisobiga 140 dan ziyod yangi ish o'rni yaratilgan. Mahsulotlar ichki bozordan tashqari Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga ham eksport qilinmoqda.

— Faoliyatimizni 20 ishchi bilan boshlagandik, — deydi korxonarabari Jahongir Abdujalilov. — Avvallari kerakli xomashyoni Xitoydan buyurtma qilib olib kelganmiz. Bu ortiqcha vaqt, sarmoya talab etardi. Yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, imtiyozli kredit



asosida zamonaviy uskunalar xarid qildik. Bu kerakli xomashyoni mahalliy sharoitda ishlab chiqarish, qo'shimcha ish o'rni yaratish imkonini berdi. Endi ishlab chiqarayotgan mahsulotlarimiz to'liq'icha mahalliyashtirildi. Shuningdek, trikotaj mahsulotlari tayyorlash hamda "LIKE" brendi ostida kungaboqarni qayta ishlashni yo'lga qo'ydik.

Qishloq joylardagi bu imkoniyatlar ishsiz, mehnat migratsiyasidan qaytgan ko'plab yoshlar kafolatli ish o'rni bilan ta'minlanishi orqali doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga xizmat qilmoqda.

— Bir necha yildan beri xorijda ishlab

kelayotgandim, — deydi korxonasi ishchisi Azizbek Tursunov. — Mahallamizdagi yangi korxonada yaxshi ish haqi, shart-sharoitlar yaratib berilganini aytib, ishga taklif qilishdi. To'g'risi, avvaliga ikkilandim. Ma'qul kelmasa, yana qaytib ketaveraman deb ishga kirishgandim. Yangilishgan ekanman, bu yerda xorijdagidan ham yaxshi daromad olish mumkinligiga amin bo'ldim. Hozir ko'plab yoshlarga kasb sirlarini o'rgatib kelyapman.

"MR Teks" mas'uliyati cheklangan jamiyati bugun nafaqat sarmozorlik korxonada 120 dan ziyod xotin-qizning bandligi ta'minlandi.

tayyor mahsulot ishlab chiqarish zanjirini yaratish, eksport miqdori va ko'lamini kengaytirish va albatta, qo'shimcha ish o'rnlari ochish bo'yicha ishlayapmiz. Buning uchun sharoit va imkoniyat yetarli.

Sarmozorlik yerdan unumli foydalanishda ham ko'pchilikka namuna. Keyingi yillarda sarxil uzum yetishtirish,

asalarchilik, issiqxona xo'jaligi faoliyatini yo'lga qo'yish an'anasi rivojladi. Odiljon G'oziyev ana shunday mirshkorlardan. Tadbirkor issiqxonasidagi kuzgi pomidor hosil nishonalarini ko'z-ko'z qilib turibdi. Bu yerdagi 0,75 gektar issiqxonadan bir yilda ikki-uch marta hosil olinmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, joriy mavsumda 50 tonnadan ortiq sarxil pomidor Rossiya bozoriga eksport qilinadi.

Guliston ko'chasida yashovchi Yusufxon Ma'rupov xonadonda noyob, nafis gullar yetishtirish uchun umumiy qiymati 500 million so'mlik zamonaviy issiqxona tashkil etib, 4 ta ish o'rni ochdi.

Mahalladagi istiqbolli loyihalar haqida gap ketganda, "Natural Milk Vodiya" xususiy korxonasi alohida e'tirof etiladi. Bu yerda fermer xo'jaliklari va mahalliy aholidan sut va sut mahsulotlari sotib olinib, qayta ishlash yo'nalishida yangi tarmoq faoliyat boshlandi, 10 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

Faqat bugina emas. Shu kunga qadar "Malika poyabzalari" xususiy korxonasida poyabzal tagchami, "Zamin Baraka" xususiy korxonasida mebel ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Miskar usta Akramxon Yunusov qadimiy va nodir hunarmandlik an'analari taraqqiy ettirish bilan birga mahallaning o'nlab yoshlariga ustozlik qilib kelmoqda.

Sarmozor mahallasidagi loyiha va tashabbuslar haqida yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Muhimi, bu amaliy islohot va tashabbuslar samarasidan ol bahrta olmoqda, ishsizlik barham topib, hududlar obod, fayzli maskanga aylanib bormoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar



BILIMGA ASOSLANGAN IQTISODIYOT

Buning AHAMIYATI JUDA YUQORI

Dunyodagi o'zgaruvchan vaziyat iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqaruvchilarning ichki va tashqi bozor sinovlariga bardoshlilikini oshirish, aholining yashash sharoitini yanada yaxshilash va inson kapitalini yuksaltirishda ta'sirchan, samarali islohotlar ro'yobini taqozo etadi. Shu bois, yangi O'zbekistondagi yangilanishlar boshlangan ilk kunlardan o'tirib, ilm-fan va innovatsiyalarga katta e'tibor qaratila boshladi. Zotan, inson kapitalini kuchaytirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish eng to'g'ri va muhim tanlovdir.

Elmurod HOSHIMOV,
Bank-moliya akademiyasi rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori

Belgilangan ustuvor vazifalarni hayotga izchil tatbiq etishda mustaqil qaror qabul qila oluvchi, iqtidorli, malakali kadrlar g'oyat zarur. Chunki barqaror taraqqiyotga erishish uchun insonga e'tibor hayotiy ehtiyojdir. Buni xalqaro darajada tahlil qilsak, yetarlicha misol topiladi. Masalan, Xitoy inson kapitalini rivojlantirish, texnologiyalar, ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, biznes kabi ko'plab sohalarda juda katta yutuqlarga erishib, jahon iqtisodiyotining ikkinchi raqamli yetakchisiga aylandi. Natijada xalq farovonligi yuksalib, taraqqiyotning mustahkam asosi yaratildi. Xitoy muhim xalqaro jarayonlarning mas'uliyatli ishtirokchisi sifatida jahon siyosati va boshqaruvda yetakchi o'ringa ega bo'ldi.

Izlanishlarga ko'ra, bilimlar sohasi AQSH iqtisodiyoti o'sishiga taxminan 15 foiz hissa qo'shadi. Eng yuqori iqtisodiy o'sishga erishishda ta'limning ahamiyati katta. Bunday davlatlar qatoriga Janubiy Koreyani ham kiritsak bo'ladi. Binobarin, uning taraqqiyotini butun dunyo tan oladi.

Bilim, ta'lim-tarbiyaga strategik maqsad sifatida e'tibor qaratilayotgan davlatimizda komil inson tarbiyasi ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu bois, xorijiy davlatlar bilan erishilgan kelishuv va bitimlarda har bir soha bo'yicha tegishli kadrlarni tayyorlash, mutaxassislar malakasini oshirish, inson resurslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar bugun amaliy samarasini ko'rsatishni boshladi. Jumladan, o'tgan davrda oliy ta'lim muassasalari

Aholini ishli va qo'shimcha daromadli qilish uchun yer ajratib berildi. Ammo ichki va tashqi bozor talabi chuqur o'rganilmagan tufayli bu yil piyoz va tarvuz kabi mahsulotlar sarflangan mehnat hamda mablag'ga nisbatan arzon narxda sotildi yoki mahsulot dalaning o'zida qoldirib ketildi. Bu jarayonga mahsulotni saqlash, qayta ishlash va logistika xizmatlarini tashkil etish bilan bog'liq masalalar ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

To'g'ri, "mahallabay", "xonadonbay" tizimli ishlar aholiga tashkiliy-moliyaviy ko'mak berib, bandligini ta'minlashda salmoqli natijalar qo'lga kiritilyapti. Ammo hududning makro va mikro darajadagi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni keng tadqiq etmay turib ko'zlangan marraga erishish qiyin, nazarimizda.

O'rganishlarga ko'ra, aholining doimiy daromad manbaiga ega bo'lishida manzilli ishlar bilan bir qatorda kompleks yondashuvlar ham juda zarur. Bular o'sish ko'rsatkichi bilan bog'liq bo'lgan bilimga tayangan iqtisodiyotga o'tish asoslarini tadqiq etish, hududlar kesimida ilmiy hamjamiyatning amaliy ko'magidan foydalanish hamda insonlarning bilim yoki ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Birinchi masala bo'yicha hududning yillik iqtisodiy o'sish sur'atini o'z ichiga olgan panel ma'lumotlar to'plami nazariy va tajriba asosida o'rganilishi zarur. Bunda dinamik panelning umumlashtirilgan usuli yordamida olingan natijalar, inson kapitali va ilmiy tadqiqotlar, infratuzilma hamda biznes yuritish qulayligi bo'yicha ma'lumotlar jamlanib, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash bilan bog'liq "yo'l xaritasi" ishlab chiqiladi.

Bilimdan foydalanish, mahalliy ehtiyojga moslashtirish va uni bozorda baholalanadigan mahsulotga aylantira oladigan innovatsion tizimlar zarur. Bu bozorga kirishni osonlashtiradi, transport va ishlab chiqarish xarajatini pasaytirib, hosildorlik hamda ishlabilmonlik faolligini oshiradi.

Hozir jahon iqtisodiyoti bilimga asoslanishga jadalik bilan o'tmoqda va bilimlarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylangan. So'nggi global boshqaruv tendensiyasi barcha qit'a, mintaqaga yoki mamlakatlarning global iqtisodiyotda faol ishtirok etishiga olib keldi. Davlatlarning bilimga asoslangan iqtisodiyotni raqobat muhim bo'lgan muhtini ta'minlaydi. Raqobatli muhit esa narx va sifatga ijobiy ta'sir qilib, bozorda ustunliklar yaratadi.

Ikkinchi masala bo'yicha hududning iqtisodiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan ilmiy yechimlarni ishlab chiqish zarur. Jarayonda marketing tadqiqotlari, urug'chilik, hududlarning o'ziga xos imkoniyati, ekologik vaziyat va tabiiy iqlim sharoiti, samarali boshqaruvni tashkil etish, logistika, infratuzilmani yaxshilash kabi yo'nalishlarda ilmiy hamjamiyat ko'magidan foydalanish samaradorlikka erishishda qo'l

Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqishda ilmiy-amaliy yechimlarni yuzaga keltiradi.

Keyingi masala aholining bilim va ko'nikmasini shakllantirish bo'lib, bu borada qisqa muddatli turli kurslarni bevosita hududlarda tashkil etish ijobiy samara beradi.



keladi. Bunda oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va "aql markazlari"ning ilmiy salohiyatidan keng foydalanish ijobiy samara beradi. Ularni manzilli birlashtirish orqali hududlarga mos salohiyatni ilmiy asoslash va shunga mos ravishda "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish, investitsiyalarni yo'naltirish, resurslarni safarbar qilish, bozorga moslashuvchan mahsulotlar yetishtirish borasida muhim yechimlarga kelish mumkin. Bunday yondashuv "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va tarkibida qo'shilgan qiymat yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish maqsadlariga erishishga katta yordam beradi.

Zero, odamlardagi bilim, ko'nikma, malaka va boshqa xususiyatlar iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur.

Xo'sh, qayd etilgan masalalarni hal etish orqali qanday natijaga erishish mumkin? Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, hududlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi. Unda hududning iqtisodiy yechimlarga kelish mumkin. Bunday yondashuv "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va tarkibida qo'shilgan qiymat yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish maqsadlariga erishishga katta yordam beradi.

vazifasi qo'yiladi. Ekologiya, iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi bilan bog'liq muammolarni yumshatish bo'yicha samarali ilmiy yechimlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, hududdagi har bir odam, jumladan, ayollar va yoshlar o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun imkoniyatlar ilmiy jihatdan tadqiq qilinadi. Bilimlarni ishlab chiqarish va boylikka aylantirish bilan bog'liq ilmiy asoslar yaratiladi. Hududning investitsiyaviy va eksport salohiyatini oshirish, aholi hamda biznes talablariga javob beradigan zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish bosh konsepsiyalari ishlab chiqiladi.

Aholining daromadini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyaning manzilligini ta'minlash tizimi ishlab chiqilib, sanoat, xizmat ko'rsatish kabi hududga mos drayver tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy yondashuvlar amalga oshiriladi. Butun jarayon raqamlashtirilib, ma'lumotlar bilan ishlash osonlashtiradi. Logistika xizmati va biznes sohasi vakillari uchun tahlil qilish imkoniyati kengayadi. Xulosalari olishga yordam beriladi. Hududlarni rivojlantirishning master rejalarini ishlab chiqilib, eksport va turizm salohiyatini oshirish, shu jumladan, "bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida mahallalarning drayver yo'nalishlari va o'sish nuqtalari belgilab olinadi.

Ilmiy hamjamiyat vakillari o'zlarini birlashtirgan hududlarning barqaror rivojlanishi va to'laqlik salohiyatini ochib beruvchi imkoniyatlarini ilmiy tadqiq qiladi, yillik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqadi.

Zarbdor, Yuchi, Sayxunobod, G'ijduvon tajribasi mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlar naqadar hayotiy ekanini namoyon qilmoqda. Hududlarni rivojlantirishning milliy xususiyat va imkoniyatlarini to'liq hisobga olgan o'ziga xos modelga aylandi. Bu tajribani tizimli tarzda mamlakatimizning boshqa hududlarida qo'llash umumiy iqtisodiy taraqqiyotga erishish va xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday yondashuv ilmiy hamjamiyatga jahonning ilg'or tajribasi, ilmiy va innovatsion yutuqlarini hayotga samarali tatbiq etish uchun keng maydon taklif qiladi. Kreativ iqtisodiyotni yo'lga qo'yish uchun o'zaro fikr-mulohaza almashish va amaliy harakatlarni olib borishga yordam beradi. Chunki kreativ iqtisodiyot dunyo miqyosida iqtisodiy o'sish, aholini ish bilan ta'minlash, innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalarini o'zida namoyon qiladi va munosib yechimlarni o'rta tashlaydi. Jahonda geosiyosiy vaziyat, global iqtisodiyotdagi beqarorlik, oziq-ovqat va energiya resurslari tanqisligi, kambag'allik, ekologiya muammolari tobora o'tkir tus olib borayotgan bir sharoitda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun ilg'or bilimlarni ishlab chiqarishda qo'llash va foydalanish juda muhim. Chunki bilim, ta'lim va innovatsiyalar global boshqaruvdagi dunyoda iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlarini ta'minlab beradi. Shu nuqtayi nazaridan, hududlar va ilmiy hamjamiyat o'rnatidagi ko'p qirrali hamkorlik taraqqiyotni yangi pog'onaga olib chiqadi.



Taraqqiyot odimlari

ISHLOV BERILAYOTGAN OLMOS

YURTIMIZ TURIZM IMKONIYATINI SHUNDAY BAHOLASH MUMKIN



Nafaqat Samarqandda, balki turizm imkoniyatiga ega barcha hududda jadal islohotlar amalga oshirilayotir. Xususan, Buxoro va Xorazm shaharlari, Qoraqalpog'iston va Orolbo'yi, Zomin, Forish, Baxmal, Bo'stonliq tumanlarida sayyohlikning turli yo'nalishlari bo'yicha alohida dasturlar qabul qilinib, tegishli ishlar bajarilmoqda.

Yaqin yillarda birgina Samarqandning dovru'g'ini eshitib kelgan sayyohlar bu yerdagi ekoturizm, gastroturizm, tog'-kurort turizm, ziyorat turizmining noyob namunalardan bahramand bo'ladi. "Toshkentning donini yegan chumchuq Makkadan qaytib keladi" deganlaridek, O'zbekistonning turizm imkoniyatini ko'rgan sayyohlar ham, albatta, yana dam olish maqsadida yurtimizga keladi. Aslida, sohani rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad ham shu.



“ Prezidentimizning shu yil avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida mehmonxona biznesi bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarga ham qator yengillik va imtiyozlar taqdim etilishi ta'kidlandi. Jumladan, 2024-yil 1-oktabrdan mehmonxona va turoperatorlarga qo'shimcha qiymat solig'ining 20 foizi "keshbek" qilib berilishi ma'lum qilindi. Shuningdek, turizm sohasidagi ekskluziv huquq bekor qilinadigan bo'ldi.

Imtiyozlar intilishga chorlamoda

Sayyohlar uchun nafaqat boradigan manzillardagi tarixiy obidalar, kurortlar, tabiat manzaralari, ya'ni dam olish uchun madaniy-ko'ngilochar maskanlar muhim, balki u yerdagi mehmonxonalarining shart-sharoiti va qulayliklari ham ahamiyatlidir. Kim ham dam olish kunlarini zamonaviy mehmonxonalarda o'tkazishni istamaydi, deysiz. Shu bois, mamlakatimizda mehmonxonalar va mehmon uylari barpo etish hamda ularning faoliyati sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2023-yilda umumiy qiymati 9,5 trillion so'mlik 508 ta loyiha hisobiga 9492 ta yangi ish o'rni ochildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yo'lga qo'yilib, jami joylashtirish vositalari soni 5526

“ Samarqandni O'zbekistonning "Turizm darvozasi"ga aylantirish bo'yicha maqsadli ishlar bajarilmoqda. Tarixda "Ro'yi zamin sayqali" deb nom qozongan Samarqand chet ellik sayyohlarda qiziqish uyg'otishi shubhasiz. Registon maydoni, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi hamda "Boqiy shahar" kabi diqqatga sazovor majmualarga ega Samarqand mazkur shaharlar bilan har tomonlama bo'yilasha oladi.

salmog'i ikki karra ortishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tarmoqda sof raqobat muhiti yaratiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda mehmonxona biznesi bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar moddiy tomondan ham rag'batlantirilayapti.

Bu, o'z navbatida, sohadagi malakali kadrlarga ehtiyojni tez va samarali bartaraf etish imkonini beradi.

Ayni paytda sohada faoliyat yuritayotgan xodimlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishida Turizm sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi jonbozlik ko'rsatadi.

2025/2026-o'quv yilidan boshlab Samarqand shahridagi Xalqaro turizm akademiyasida mehmonxona va restoranlar uchun yuqori malakali xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tayyorlashni yo'lga qo'yilishi ham tarmoqdagi kadrlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etadi.

Qarorda kadrlarning jahon standartlari asosida tayyorlangan o'quv dasturlari orqali ta'lim olishi ko'zda tutilmoqda. Yangi o'quv dasturlarida talabalarning nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishiga ham urg'u berilmoqda.

Belgilangan vazifalar to'laqonli amalga oshirilsa, mamlakatimizdagi mehmonxona va restoranlar nafaqat qulayligi, zamonaviy shart-sharoitlari, balki yuqori darajada xizmat ko'rsatishi bilan ham xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Soha rivoji xalqaro reytinglarda bo'y ko'rsatmoqda

Turizm sohasida xalqaro reytinglarda yuqori pog'onalarni band qilish ahamiyatli. Sababi bu reklama sifatida sayyohlar oqimining ortishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda O'zbekistonda sayyohlik sohasidagi islohotlar xalqaro reytinglarda bo'y ko'rsata boshladi. Xususan, O'zbekiston 2024-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro'yxatiga kiritildi. "World of Statistics" bu haqda e'lon qilishi xorijiy turistlar soni va turizm eksporti hajmi oshishiga xizmat qiladi.

“ Jahon musulmon sayohati indeksi” (GMTI-2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O'zbekiston 140 mamlakat ichida 13-o'rinni egallagan edi. Shuningdek, "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" sovrinini qo'lga kiritdi.

Turli sovrinlar bilan taqdirlanib va xalqaro ko'rsatkichlarda yuqori pog'onalarni egallab borishimiz sohadagi islohotlar natija berayotgani bu yo'lda yana qilinishi zarur bo'lgan ishlarimiz salmog'ini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston turizm imkoniyati kon ichida yotgan toshga o'xshaydi. Uni qazib olib qancha ishlov bersangiz, olmos kabi yarqiraydi. Sifatli ishlov berilgan olmosni butun dunyoga taqdim etsangiz, barchaning ko'zini qamashtirishi, qiziqishi va hayratini ortirishi shubhasiz.

Sanjar BEK, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Buning asosiy sabablaridan biri turizm rivoji boshqa sohalar, boringki, davlatlar istiqbolida drayver vazifasini o'tab berishidir. Ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash, transport-logistika sohasi rivoji, savdo-sotiq, eksport kuchayishida, xorijiy investitsiyalar jalb qilinishida sayyohlik taraqqiyoti muhim.

Shu sababli mamlakatimizda turizm rivojiga alohida urg'u berilmoqda. Xususan, "O'zbekiston—2030" strategiyasida yurtimizda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoit yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasi belgilangan. Jumladan, xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 millionga yetkazish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga mamlakatda 30 ta yirik turizm klasteri tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobar oshirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'li qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish maqsad qilingan.

Ko'sh, bu maqsadga erishish imkoniyati, sohaning hozirgi holati qanday? Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida 4,2 million chet el fuqarosi turistik maqsadda O'zbekistonga kelgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 foiz ko'p.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish uchun Qatar, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar singari hamma ishni yangidan boshlashimiz shart emas. Ming yillik tarixga ega, tabiiyat jannatnonand, xalqi mehmondost yurtimizda sayyohlikning turli tarmoqlarini taraqqiy ettirishga yetarlicha resurslar mavjud. Bizdan ushbu resurslardan oqilona foydalanish, ularni modernizatsiya qilib, dunyoga tanitish talab etilmoqda, xolos.

Samarqand yurtimizning tashrif qog'oz bo'ladi

Fransiya haqida so'z borganda xayolingizga Parij keladi. Yoki Italiya deyilsa, Rim, AQSH deyilganda Las Vegas, Nyu York, Turkiya haqida o'ylaganda esa Istanbul xotirlaysiz. Sababi ular mamlakatning sayyohlarni eng ko'p



taga yetkazildi. Shuningdek, 452 ta oilaviy mehmon uyi ochilib, ularning umumiy soni 3458 ta bo'ldi. Sayyohlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagent faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ular soni 2649 taga yetdi.

Prezidentimizning shu yil avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida mehmonxona biznesi bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarga ham qator yengillik va imtiyozlar taqdim etilishi ta'kidlandi. Jumladan, 2024-yil 1-oktabrdan mehmonxona va turoperatorlarga qo'shimcha qiymat solig'ining 20 foizi "keshbek" qilib berilishi ma'lum qilindi. Shuningdek, turizm sohasidagi ekskluziv huquq bekor qilinadigan bo'ldi. Endi mehmonxona faoliyatini sertifikatlash bilan akkreditatsiyasi bor barcha korxonaga shug'ullana oladi. Hozirgacha bu xizmat bo'yicha ekskluziv huquq Turizm qo'mitasi huzuridagi tashkilotga berilgan edi.

Ushbu yangilik mamlakatimizdagi mehmonxonalarining xizmat sifati, soni va

Vazirlar Mahkamasining shu yil 13-sentabrda tegishli qarori bilan tasdiqlangan Modulli mehmonxonani qurish va jihozlash uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risida vaqtinchalik nizomga asosan, tadbirkorlarga mehmonxona qurish va jihozlash uchun pul ajratiladigan bo'ldi. Unga ko'ra, subsidiya 2024-yil 1-oktabrdan 2026-yil 1-noyabrgacha muvofiqlik sertifikatiga berilgan yangi tashkil etilgan hamda kamida 10 ta moduldan iborat modulli mehmonxona uchun uning toifasidan qat'i nazar, har bir joyga 1 million so'mdan ajratiladi.

Xorijlik sayyohlarni jalb qilishda mamlakatimizdagi "turizm qishlog'i", "turizm mahallasi", "turizm ovuli" hamda ularda ochilayotgan mehmon uylarining ahamiyati katta. Bunda xalqimizning qon-qoniga singib ketgan mehmondostlik hamda ko'p yillardan beri ahil jamoa bo'lib yashashimiz qo'l kelmoqda. O'tgan yili Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'lgani ham bu tizimning foydali ekanini bildiradi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3805.
41218 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhib: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy